INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISHNING NAZARIY-GRAMMATIK ASOSLARI(6- SINF MISOLIDA)

Andijon davlat pedagogika institute

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Abdulxayeva Maftuna

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatishning nazariy-grammatik asoslari yoritiladi. O‘quvchilarda morfologik tushunchalarni shakllantirishda grammatik qonuniyatlarning ahamiyati, so‘z turkumlarining lingvistik xususiyatlari hamda ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan samarali metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, so‘z turkumlari, grammatik asos, ona tili darsi, 6-sinf, lingvistik tahlil, metodika, nutqiy kompetensiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-грамматические основы обучения частям речи на уроках родного языка в 6 классе. Анализируется роль грамматических закономерностей в формировании морфологических понятий у учащихся, а также лингвистические особенности частей речи и эффективные методы их преподавания. Особое внимание уделяется обеспечению взаимосвязи теории и практики в учебном процессе.

Ключевые слова: морфология, части речи, грамматическая основа, урок родного языка, 6 класс, лингвистический анализ, методика, речевая компетенция

Abstract: This article discusses the theoretical and grammatical foundations of teaching parts of speech in 6th-grade native language classes. It analyzes the role of grammatical patterns in developing students’ morphological understanding, as well as the linguistic features of parts of speech and effective teaching methods. Special attention is given to ensuring the integration of theory and practice in the educational process.

Keywords: morphology, parts of speech, grammatical basis, native language teaching, 6th grade, linguistic analysis, methodology, communicative competence

Zamonaviy ta’lim tizimida ona tili fanini o‘qitish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda til birliklarini ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, morfologiya bo‘limi ona tilining grammatik tizimini anglashda asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. 6-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rganish orqali o‘quvchilar so‘zlarning ma’no va grammatik xususiyatlarini farqlash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash malakasini egallaydilar.

So‘z turkumlarini o‘rgatish jarayonida grammatik asoslarni chuqur o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘quvchilarga morfologik tushunchalarni tizimli va izchil shakllantirish imkonini beradi. Grammatik qonuniyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni

o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli, morfologik bilimlarni o‘rgatishda lingvistik yondashuv bilan bir qatorda didaktik tamoyillarga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Ushbu maqolada 6-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatishning nazariy-grammatik asoslari, ularni shakllantirishda qo‘llaniladigan metod va usullar hamda o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, morfologik tushunchalarni samarali o‘zlashtirishda grammatik bilimlarning o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

6-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatishning nazariy-grammatik asoslari o‘quvchilarning morfologik bilimlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Morfologiya tilshunoslikning so‘zlarning grammatik shakllari, tuzilishi va so‘z turkumlarini o‘rganadigan bo‘limi bo‘lib, u til tizimini yaxlit holda anglashga xizmat qiladi.1 Shu sababli, so‘z turkumlarini o‘rganishda ularning grammatik belgilari va lingvistik xususiyatlari asos qilib olinadi. So‘z turkumlari so‘zlarning umumiy grammatik va semantik belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratilishidir. O‘zbek tilida so‘z turkumlari tilning muhim grammatik tarkibiy qismi bo‘lib,ular so‘zlarning gap ichidagi vazifasini,shaklini va ma’nosini aniqlashga xizmat qiladi. 6-sinf bosqichida o‘quvchilar ot, sifat, son, fe’l kabi asosiy so‘z turkumlari bilan tanishadilar. Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos grammatik kategoriyalarga ega bo‘lib, ular yordamida so‘zlarning gapdagi vazifasi aniqlanadi .2 Masalan, otlar predmet va hodisa nomini bildirsa, sifatlar predmetning belgisini, fe’llar esa harakat va holatni ifodalaydi. So‘z turkumlari tilning grammatik tizimini tashkil etuvchi asosiy tashkil etuvchi asosiy birliklardan biri bo‘lib, ularni o‘rganish o‘quvchilarga so‘zlarning ma’nosi va vazifasini to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi.So‘z turkumlarini bilish orqali o‘quvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri va aniq gap tuzishni o‘rganadilar, bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Grammatik asoslar o‘quvchilarga so‘z turkumlarini tizimli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar morfologik tahlil orqali so‘zning qaysi turkumga mansubligini, uning grammatik shakllarini aniqlashni o‘rganadilar.3 Bunday tahlil ularning mantiqiy fikrlashini va lingvistik kompetensiyasini rivojlantiradi. Morfologik tahlilning asosiy maqsadi-so‘zning tuzilishi va grammatik xususiyatlarini o‘rganish va uning tarkibini aniqlash jarayonidir. Morfologik tahlil orqali so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi, uning grammatik shakllari, qo‘shimchalari va umumiy morfologik belgilari aniqlanadi.

---

1 Nurmonov A., Mahmudov N. Ona tili (Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017.

2 Rasulov R. O‘zbek tili grammatikasi (Morfologiya). – Toshkent: “Fan”, 2005.

3 Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010.

So‘z turkumlarini o‘qitishda bosqichma-bosqich yondashuv qo‘llaniladi. Dastlab nazariy tushunchalar beriladi, so‘ngra ularni mustahkamlash uchun turli mashqlar bajariladi. Masalan, matndan so‘z turkumlarini ajratish, ularni guruhlash, gap ichida vazifasini aniqlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.4 So‘z turkumlarini o‘qitishda turli metodlardan kompleks foydalanish dars samaradorligini oshiradi.Ayniqsa, an’anaviy va interfaol metodlarning uyg ‘unligi o ‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlab, ularning nutqiy va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.To‘g‘ri tanlangan metodlar orqali o‘quvchilar so‘z turkumlarini ongli o‘zlashtiradilar va ularni amaliyotda samarali qo‘llashni o‘rganadilar.Bu esa nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aqliy hujum, klaster, T-jadval, guruhlarda ishlash kabi metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va dars samaradorligini kuchaytiradi .5 Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar so‘z turkumlariga oid bilimlarni mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Grammatik asoslar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. So‘z turkumlarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirishga xizmat qiladi.6

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov N. Ona tili (Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017.

2.Rasulov R. O‘zbek tili grammatikasi (Morfologiya). – Toshkent: “Fan”, 2005.

3.Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010.

4.Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009.

5.Yo‘ldoshev J., Usmonova M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2004.

6.Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

4 Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009.

5 Yo‘ldoshev J., Usmonova M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2004.

6 Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.